

**RAQAMLI BOJXONANI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO
STANDARTLARNI JORIY QILISH MASALALARI.**

*Eshturdiyev Bobosher Botir o'g'li.
Bojxona instituti 4-kurs kursanti.*

Annotatsiya: Dunyoning barcha mamlakatlarida, shuningdek, O'zbekistonda xam bojxona organlari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari faoliyatining asosiy qismini axborot almashish tizimlari va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar tashkil etishi barchamizga ma'lum. Hozirgi kunda xalqaro va milliy qonun xujjatlariga kiritilayotgan bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar, xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, bojxona organlarida bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartib-taomillarining takomillashuvi amalda qo'llanilib kelinayotgan axborot almashish tizimlari va raqamli texnologiyalarning yangi versiyasini ishlab chiqish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bejizga, Jahon bojxona tashkiloti

2022-yilga "Raqamli bojxona transformatsiyasini kengaytirish" yili deb nom bermadi. Bundan bojxona tizimini raqamlashtirish bugungi kunda xalqaro va milliy bojxona siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hamda global miqyosda dolzarbligini namoyon etmoqda.

Kalit so'zlar: valyuta, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat, byudjet, tadbirkorlik faoliyati, birja savdolari.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan iqtisodiyot sohasiga qaratilayotgan e'tibor har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadbirkorlar va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ichki bozorlarimizni import o'rnini bosuvchi, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'yintirish imkonini yaratib, O'zbekistonning dunyo bozorida reytingini ortishiga ham xizmat qilib kelmoqda.

Jahon siyosati va iqtisodiyotidagi mavjud tendensiyalar bojxona ma'muriyatchiligining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bojxona organlari faoliyati zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yanada soddalashdi va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining asosiy ko'makchisiga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, bojxona xizmatlarini takomillashtirish borasida yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish va manfaatli hamkorlik olib borish muhimligini ko'rsatdi.

Raqamli iqtisodiyotga to'liq o'tish natijasida ma'lum bir maqsadlarga erishish kutilmoqda. Ulardan biri raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashqi savdo

faoliyatini amalga oshirishda davlat xizmatlarini ko'rsatish xarajatlari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga xarajatlarni kamayishiga olib keladi.

Bojxona organlari bir tomondan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'z faoliyatining samaradorligini ta'minlasa, boshqa tomondan ular davlatning manfaatlarini himoya qiladi.

Bojxona chegarasi orqali yuklarni tashish murakkab, ko'p bosqichli jarayondir. Zamonaviy bojxona qonunchiligi nafaqat uni birlashtirish va yagona xalqaro standartlariga yetkazish, balki imkon qadar uni soddalashtirishni ham taqozo etadi.

Bojxona rasmiylashtiruvini ishonchli yetkazib berish va egalik narxida muhim ro'l o'ynashi mumkin, ammo ko'pgina kompaniyalar hali ham o'zlarida bojxona xizmatlarini yo'lga qo'yishda ikkilanishadi. Raqamlashtirish sohasidagi yutuqlar tufayli, endi bu masalaga munosib e'tibor berish vaqti keldi.

Taqsimot zanjirlarini optimallashtirish va raqamlashtirish uchun ko'p kuch sarflandi, ammo bojxona jarayoni deyarli o'zgarmadi. Ko'pincha byurokratik va murakkab ish hisoblangan bojxona xizmati provayderining ro'li bunga javoban paydo bo'ldi. Ular mustaqil xususiy sektor subyektlari sifatida yoki qo'shimcha xususiyat sifatida bojxona xizmatlarini taklif qiluvchi yirik logistika kompaniyalarining bo'linmasi sifatida ishlaydi. Bojxona xizmatlarini etkazib beruvchilar, birinchi navbatda, xo'jalik yurituvchi subyektlar va bojxona xodimlari o'rtasida vositachi vazifasini bajaradilar.

Mijozlar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning o'zaro munosabati ko'pincha hokimiyatning harakatlari va tartiblari kabi byurokratikdir.

Bir necha yil oldin Singapur va AQSH rasmiylari bojxona sohasida raqamli transformatsiyani birinchi bo'lib amalga oshirgan edi. Ular amalga oshirgan tizimlar, jarayonlar va protseduralar sezilarli darajada farq qiladi, ammo maqsad bir xil: xizmatlarini yanada samaraliroq va mijozlarga yengilliklar yaratish uchun raqamli yechimlarni joriy etish.

Bu bojxona xizmatlarini yetkazib beruvchilar ertangi kunning global ta'minot zanjirlarida qanchalik dolzarb bo'lishi va ushbu bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishi uchun ularning biznes modellari qanday o'zgarishi kerakligi haqidagi savolni tug'diradi.

Gareth Lewis Bryusseldagi Jahon bojxona tashkilotining texnik xodimi.

U Port Adelaidedagi bojxonada ish boshlagan va Janubiy Avstraliya mintaqasi bo'ylab barcha asosiy yo'nalishlarda bojxona operatsiyalarini o'rgangan. Uning tadqiqotlarida yozilishicha:

2008-yil yanvar oyida Yevropa Ittifoqi bojxona va savdo uchun qog'ozsiz muhit to'g'risida qaror qabul qildi, bu barcha A'zo davlatlardan quyidagilarni talab qiladi:

Bojxona nazoratini tashkil etish samaradorligini oshirish va bojxona rasmiylashtiruvini yanada samaraliroq qilish, ma'muriy og'irliklarni kamaytirish,

firibgarlik, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashishda yordam berish, moliyaviy manfaatlarga xizmat qilish, intellektual mulk va madaniy merosni himoya qilish, tovarlarning xavfsizligi va xalqaro savdo xavfsizligini oshirish, sog'liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar. Buning uchun bojxona maqsadlari uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taqdim etiladi.

Yuridik kuchga ega bo'lgan qarorda quyidagilar qo'shiladi:

Komissiya va a'zo davlatlar bojxona deklaratsiyalari, bojxona deklaratsiyasi va sertifikatlariga ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlar almashinuvi hamda boshqa tegishli ma'lumotlar almashinuvi uchun xavfsiz, integratsiyalashgan, o'zaro faoliyat yurituvchi va foydalanish mumkin bo'lgan elektron bojxona tizimlarini yaratadilar.

Markaziy Osiyo Respublikalari Iqtisodiy Hamkorligi (SARS) uchun Savdoni osonlashtirish dasturi doirasida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) shunday dedi:

- bojxona xizmatlarini avtomatlashtirish va ma'lumotlar almashish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish a'zo mamlakatlarning bojxona huquqiy islohotlarini kuchaytirishga va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishga, bojxona xizmatlarining shaffofligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

AKT shuningdek, bojxona rasmiylashtiruvda bojxona xodimlari va savdogarlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni qisqartirish orqali boshqaruvni yaxshilaydi va korrupsiyani kamaytiradi. Xavflarni boshqarish, tovar olib chiqib ketilganidan keyingi audit va yagona oyna kabi zamonaviy bojxona amaliyotlarini joriy etish uchun tegishli AKT infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega.

- bojxonani avtomatlashtirish. Bojxona samaradorligini oshirishning eng kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, avtomatlashtirishning afzalliklari va amalga oshirish xarajatlariga qaratilgan. Bojxona bilan bog'liq kreditlash loyihalarida xarajatlarni baholashga asoslanib, qog'ozsiz avtomatlashtirilgan bojxona tizimlarini joriy qilish, saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari sezilarli darajada yuqori ekanligini aniqlaydi. Biroq, JBT a'zolarining aksariyati bunday tizimlarni allaqachon joriy qilgan va o'tmishdagi tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda moliyaviy foyda vaqt o'tishi bilan xarajatlardan oshib ketgan. Avtomatlashtirilgan bojxona tizimlarini muvaffaqiyatli joriy etishdan olingan turli saboqlar orasida ikkitasini alohida ta'kidlash joiz. Birinchidan, avtomatlashtirish savdoni osonlashtirish uchun yagona vosita deb hisoblamaslik kerak; Ikkinchidan, majburiyat va moliyaviy barqarorlik, muvaffaqiyatli avtomatlashtirilgan bojxona modernizatsiyani tashkil qilish uchun zaruriy omildir.

A. Tapacov (Rossiya bojxona akademiyasi professor o'qituvchisi) ta'kidlashicha, raqamli transformatsiya, avvalambor, yangi biznes jarayonlar, tashkiliy tuzilmalar, qonunlar, qoidalar, ma'lumotlar uchun yangi javobgarlik, yangi modellar

demakdir. Uning fikricha, raqamli transformatsiyaning asosiy jarayoni ma'lumotlarni strategik boshqarishdir.

Agar qaror quyidagi texnologik guruhlardan biriga asoslangan bo'lsa, raqamli hisoblanadi.

1. Kengaytirilgan analitik (rivojlangan analitik va katta ma'lumotlar).
2. Sun'iy intellekt (masalan, kompyuterni ko'rish, nutq interfeysi).
3. Robotlashtirish (robotlar va dronlar).
4. Ko'chma va taqiladigan qurilmalar (mobil yechimlar, taqiladigan texnologiyalar (GPS plomba)).
5. Integratsiya texnologiyalari platformalari (narsalarning sanoat interneti, bulutli texnologiyalar, elektron o'zaro ta'sir va ijtimoiy tarmoqlar, tezlashtirilgan / kvantli hisoblash, blokcheyn).

E'tibor qilaylik, natijada olingan texnologiyalar insonni ham to'ldirishi, ham uning o'rnini bosishi mumkin. Birinchisi, ilg'or tahliliy texnologiyalar, shuningdek, mobil va taqiladigan qurilmalar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi sun'iy intellekt va robotlashtirish bilan bog'liq.

Agar bu bojxona organi tiliga o'tkazilsa, unda bojxonalarini raqamlashtirish jarayoni va hattoki, raqamli bojxona modelini yaratish quyidagi elementlarni bitta koordinatalar tizimida o'rganishni talab qiladi:

- Ilg'or (raqamli) texnologiyalarni qo'llash.
- Operatsion jarayonlarni o'zgartirish (bojxona operatsiyalari).
- Biznes jarayonlarini optimallashtirish (bojxona operatsiyalari).
- Biznes modellari.
- Kengaytirilgan tahlil.
- Sun'iy intellekt.
- Mobil va taqiladigan qurilmalar.
- Avtomatlashtirish.
- Robotlashtirish.
- Integratsiyalashgan texnologik platformalar.
- Raqamli bojxona modeli va uning variantlari.

Boshqaruv nazariyasida raqamlashtirish atamasi turli ma'nolarda qo'llaniladi. T.Серийхning fikriga ko'ra, raqamlashtirish bu – rivojlangan analitik, sun'iy intellekt, mobil va toqib yuriladigan qurilmalar, robotlashtirish va integratsiya texnologiyalari platformalaridan foydalangan holda insonni almashtirish yoki to'ldirish orqali operatsion jarayonlar va biznes modellarni o'zgartiradigan ilg'or texnologiyalardan foydalanish. Xuddi shu muallifning fikriga ko'ra, raqamlashtirish yangi yutuq echimlarni izlash, sinovdan o'tkazish va amalga oshirish orqali biznesni doimiy takomillashtirish va o'zgartirish jarayonini o'z ichiga oladi.

П. Боровков uchta asosiy atamani ajratadi: avtomatlashtirish, raqamlashtirish va biznesning raqamli transformatsiyasi. Uning so‘zlariga ko‘ra, avtomatlashtirish - bu biznesda mavjud bo‘lgan jarayonlarni kompyuter hisob-kitoblari, elektron saqlash va ma‘lumotlar almashinuvi bazasiga o‘tkazish. O‘z navbatida, raqamlashtirish - bu kompaniyaning biznes-jarayonlarini raqamli iqtisodiyotning yangi vositalari va texnologiyalariga yaqinroq mos keladigan tarzda o‘zgartirish. Va nihoyat, biznesning raqamli transformatsiyasi deganda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan maksimal darajada samarali foydalanish maqsadida butun biznes modeli: strategiya, jarayonlar, tashkiliy tuzilma, moliya, savdo va logistikani o‘zgartirish tushunilishi kerak.

Галина Федотова. Rossiya federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida joylashgan, Sankt-Peterburg politexnika universiteti dotsenti. “Tovarlarni tasniflash bo‘yicha bojxona xizmatlarini raqamlashtirish muammolari” mavzusidagi maqolasida tovarlarni tasniflash bo‘yicha bojxona xizmatlarini raqamlashtirishni iloji yo‘q degan xulosaga keldi.

Tadqiqotda Rossiya Federatsiyasi davlat sektorini raqamli o‘zgartirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot obyekti sifatida xalqaro savdo uchun eng muammoli tovarlar sifatida mexanizm va uskunarlar tanlandi. Tadqiqot keng qamrovli bo‘lib, statistik ma‘lumotlar va huquqiy manbalardan foydalangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot davomida muallif Rossiya Federal bojxona xizmati so‘nggi o‘n yilliklarda davlat xizmatlarini ko‘rsatish va davlat funksiyalarini elektron shaklda amalga oshirishga o‘tish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rganligini aniqladi. Bojxona operatsiyalarini avtomatlashtirish zarurati taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlarga avtomatik ishlov berishni ta‘minlash vazifasini qo‘yadi. Rossiya Federatsiyasining bojxona organlari tomonidan xizmatlar ko‘rsatish amaliyotining taqdim etilgan tahlili, muallifga tovarlarni identifikatsiya qilish va tasniflashni axborotlashtirish uchun juda qiyinchiliklar tug‘dirdi. Muallif tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini qo‘llashda tizimli yondashuv tufayli tasniflash bo‘yicha qaror qabul qilishni raqamlashtirish imkoniyatini cheklovchi omillarni aniqladi, bu esa sharhlashning umumiy qoidalarini qo‘llash zaruriyatini belgiladi. Tadqiqotda keltirilgan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bojxona maqsadlarida tovarlarni tasniflash bo‘yicha xizmatlarni to‘liq axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ko‘rsatish mumkin emas. Bu sohada bojxona xizmatlarini raqamlashtirishning amaldagi darajasi endilikda faqat yordamchi funksiyalar bilan cheklanadi. Mexanizm va manbalarni tasniflash bo‘yicha qarorlar qabul qilishni raqamlashtirish imkoniyati yo‘qligi hozirgi bosqichda bojxona xizmatlarini raqamli o‘zgartirishning asosiy cheklovidir. Ushbu tadqiqotida tovarlarni tasniflash bo‘yicha bojxona xizmatlarini raqamlashtirishni iloji yo‘qligi haqida o‘z fikrlarini yozib qoldirgan.

Мозер Сергей Владимирович (Rossiya bojxona akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutining katta ilmiy xodimi). Rossiya bojxona akademiyasi ilmiy-tadqiqot

institutining katta ilmiy xodimi. Uning “Bojxonani tartibga solishni takomillashtirish: Jahon bojxona tashkiloti yondashuvlari asosida raqamli bojxona institutining nazariy asoslarini shakllantirish” ilmiy tadqiqot ishida raqamli bojxonani tashkil etishning nazariy asoslarini keng miqyosida yoritib bergan.

Bugungi kunda xalqaro, ma'muriy va bojxona huquqi nazariyasida bojxona tartibga solish doirasida elektron yoki raqamli bojxona institutini rasmiylashtiruvchi, ochib beruvchi, tavsiflovchi fundamental nazariy tadqiqotlar mavjud emas. Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasining “Raqamli bojxonani shakllantirishga yondashuvlarni ishlab chiqish to‘g‘risida”gi dastlabki hujjatni tayyorlash bo‘yicha ekspert guruhi ishini tashkil etish maqsadida biz elektron bojxona institutini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy nashrlarni o‘rgandik. Agar biz bojxona sohasidagi ilm-fanning Rossiya segmentini oladigan bo‘lsak, qoidaga ko‘ra, bunday tadqiqotlar Federal bojxona xizmatining normativ xuquqiy bazasi ichiga kiradi va kamdan-kam hollarda xulosa va tavsiyalar, bojxona boshqaruvining xorij tajribasiga yoki Jahon bojxona tashkilotining ushbu sohadagi huquqiy hujjatlari va vositalariga murojaat qilmaydi.

O‘z navbatida, raqamli bojxona institutining ilmiy ishlanmalari deyarli yo‘q deydi C.Mozep.

Jahon bojxona tashkilotining Siyosiy komissiyasi yig‘ilishida, bojxonani raqamlashtirish bo‘yicha muxokamaga sabab bo‘lgan nazariyalar ko‘rib chiqildi:

Raqamli bojxona instituti tashkil etilishi bilan JBTga a‘zo davlatlar tashkiliy va amaldagi rejada bojxonalarni rivojlantirish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishlari kerak.

Bojxona organi raqamli bojxona yo‘nalishi bo‘yicha rivojlanishi kerak va avtomatlashtirish nuqtai nazaridan bojxona iqtisodiy operatorlari bilan hamqadam bo‘lishi kerak.

Raqamli bojxona institutining joriy etilishi tovarlarni tezkor bojxona rasmiylashtiruviga hamda bojxona organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan bog‘liq masalalarni tezkor hal qilinishiga yordam beradi.

Raqamli bojxonalarni rivojlantirish masalalarini hal qilishda, nafaqat AKT mutaxassislari, balki bojxona xodimlari va tashkilotning siyosatiga mas‘ul bo‘lgan shaxslarning faol ishtiroki bilan ilg‘or texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish kerak.

Raqamli bojxonalarni ishlab chiqish jarayonini boshqarish AKT mutaxassisi tomonidan emas, balki bojxona sohasida tajribaga ega bo‘lgan ijro etuvchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. 08.12.1992-y. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/>

2. O.Sh.Dadabayev, S.S.Soatov, A.M.Sagitov. Bojxona statistikasi va tizimli tahlil. Darslik. Toshkent: BI, 2020-y. - 296 b.
3. Системный анализ и аналитический исследовательский менеджмент для профессиональных аналитиков / А.И. РАКИТОВ, Д.А. БОНДЯЙЕВ, И.Б. РОМАНОВ, С.В. ЯГЕРЕВ, А.Ю. ЩЕРБАКОВ; [ОТВ. ред. А.И. РАКИТОВ]. - М., 2009. - 448 с.
4. MDHga a‘zo davlatlar Bojxona xizmatlari rahbarlari kengashining 2011 yil 9-iyundagi 53-yig‘ilishida tasdiqlangan “O‘zaro savdo bojxona statistikasi ma‘lumotlarini solishtirishda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo davlatlar bojxona xizmatlarining o‘zaro hamkorligi tartibi to‘g‘risidagi bayonnoma”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni.